O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING JIZZAX
VILOYATI BOSHQARMASI

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel/Faks: 71-203-11-09, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Safarov Bobir Sabirjanovich

2026 - yil 22 - iyuldagi 290482 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: “Jizzax viloyati Jizzax shahar “Toshloq” MFY hududida qurilishi rejalashtirilgan “Ko’p qavatli turar joy” binosi”

Buyurtmachi: MAMAJONOVLAR MCHJ

Bosh loyihachi: "NUR-FAYZ-ZAMIN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: Tanlov asosida

Qurilish turi: Yangi qurilish

Murojaat raqami: 129295

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Obyektni ixtisosini o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishga 2025 yil 1 dekabrdagi 232168545-sonli ruxsatnoma.

1.2. Buyurtmachi MAMAJONOVLAR MCHJ tomonidan 01.12.2025 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig’i.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Buyurtmachi MAMAJONOVLAR MCHJning “Shaffof qurilish” MAT orqali 08.06.2026 yildagi 129295-sonli murojaati.

2.2. Buyurtmachi MAMAJONOVLAR MCHJ tomonidan 01.12.2025 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig’i.

2.3. Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 05. 12.2025 yilda berilgan № 1708-1708401-248806-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

2.4. Davlat ekologik ekspertiza markazi Jizzax viloyati boshqarmasi tomonidan 16.01.2026 yilda berilgan 01-02/04-2681-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 27.04.2026 dagi 282320365 -sonli xulosasi.

2.6. “GEODELTA” MCHJ ning 2026 yil 3 iyunda berilgan 226060220-sonli qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari bo‘yicha xulosasi.

2.7. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Jizzax hududiy filiali tomonidan 10.12.2026 yilda berilgan 08402140208-sonli texnik shart.

2.8. “Jizzax suv ta’minoti” aksionerlik jamiyati tomonidan berilgan 2025 yil 28 noyabrdagi 246/10-sonli texnik shart.

2.9. MAMAJONOVLAR MCHJ va "NUR-FAYZ-ZAMIN" MChJ o’rtasida 28.04.2025 yilda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun tuzilgan 13-sonli shartnoma.
2.10. Ishchi loyiha tarkibiga ko‘ra ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari elektron tarzda taqdim qilingan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. **Loyiha bosh rejasi.**

Bosh reja ishchi chizmasi “Jizzax viloyati Jizzax shahar “Toshloq” MFY hududida qurilishi rejalashtirilgan “Ko’p qavatli turar joy” binosi” obyekti, Jizzax viloyati qurilish va uy joy komunal xo‘jaligi boshqarmasi tomonidan berilgan 05.12.2025-yildagi, № 1708-1708401-248806-sonli ART asosida, 1:500 masshtabdagi topografik xaritada, barcha sanitariya talablariga rioya qilgan holda bajarilgan.
Hudud ko‘pburchak shaklda, umumiy maydoni - 6547.69 m2.
Hudud to‘rt tomondan quyidagilar bilan chegaralanadi:
- shimolda - noturar joy bilan;
- janubda - axoliga gaz tuldirish shaxobchasi bilan;
- sharqda - I.Karimov ko’chasi bilan;-
- g‘arbda - noturar joy bilan.

Bosh reja ishchi loyihasida quyidagi bino va inshootlar va ish turlari aks etgan:
Xududda mavjud bino va inshootlar tarkibi:
-Ko‘p kavatli turar-joy binosi (3ta),
-Yakka tartibdagi turar-joy binosi,
-Avtobekat.
Xududda qurilayotgan yangi bino va inshootlar tarkibi:
-Kup kavatli turarjoy binosi 3ta;-Bolalar maydonchasi;
-Avtoturargox;
-Transformator o‘rnatish uchun maydon;
-Chikindixona.

Ishchi loyihada hududni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha chora tadbirlar kiritilgan. Ushbu hududi orqali transport vositalarini boshqarish qulayligini oshirish uchun avtomobil o‘tish yo‘li yong‘inga qarshi asfalt-beton yo‘l ajratilgan (kengligi 4.2m).
Piyodalar yo‘llari bruschatka qoplamasi bilan ta’minlangan Bino qurilish ostidagi va ustidagi barcha jihozlangan va muhandislik tarmoqlarini uzatishni amalga oshirish. (Quvvat liniyasi).
Loyihada yong‘indan himoya qiluvchi qalqon va axlat yig‘ish qutilari mavjud bo‘lib, ular har kuni tozalanishi va toza bo‘lishi kerak.
Bosh rejasi amaldagi me’yoriy talablarga muvofiq ishlab chiqilmagan.Bosh rejasi Ushbu ishchi loyixa barcha keltirilgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so‘ng kuchga kiradi.
Bosh reja (GOST 21.508-2020); SHNQ 2.07.01-23 "Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari muvofiq qayta ishlab chiqilsin. to’liq bajarilmagan;
· Muhandislik tarmoqlarining qisqacha rejasi(сводный план) listi bosh qa varoqdagi joylashuvlar bilan solishtirilsin; bajarilmagan;
· SHNQ 2.07.01-23 "Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari 411-bandiga muvofiq: Turar joy, jamoat va dam olish maskanlarida avtoturargohlarni hisoblash normalari quyidagi 29 jadvalga muvofiq belgilanishi kerak. Avtoturargoh o'rinlar soni muvofiqlashtirilishi lozim;
· SHNQ 2.07.01-23 "Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari 93-bandiga muvofiq: Chiqindi

to'plash maydonchalaridan turar joy binolari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanish, bolalarning o'ynash maydonchalari hamda katta yoshdagi aholining dam olish joylarigacha, shuningdek ta'lim, sog'liqni saqlash va umumiy ovqatlanish muassasalarigacha bo'lgan masofa 25m dan kam bo'lmagan, turar joy binosining eng uzoq kirish joyigacha 100 m dan ortiq bo'lmagan masofada joylashtirilishi lozim. Inobatga olinsin;

· Bosh rejada ko'rsatib o'tilgan (Блок-А)va Qurilishi tugallanmagan ko'p qavatli turar-joy binolari oraliq masofalari Binoning derazalari bor old(orqa) tarzi (binoning uzun tomoni)dan boshqa binoning derazalari bor yon tarzigacha bo'lgan masofasi bino balandligining 2 baravarini 0.3 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi. (SHNQ 2.07.01-03, 18 ILOVA) muvofiq qayta ko'rib chiqilishi lozim;

Bosh rejadagi ko'rsatilgan kamchiliklar "MAMAJONOVS" COMPANY LIMITED tomonidan 2026 yil 15-iyulda taqdim etilgan № 15/07-sonlikafolat xati asosan keyingi boshqichda bajarilishi kafolatlangan.

Buyurtmachining talabi asosida, moliyaviy ta'minlanganlik miqdoriga muvofiq hududda yuqorida keltirilgan tadbirlardan boshqa ish hajmlari loyihada kiritilmasligi ma'lum qilingan.

Ajratilgan yer hududi balansi:

- Qurilish hududi – 0.65 ga;
- Bino osti maydoni - 0.23 ga;
- Yo'l va yo'laklar maydoni - 0.25 ga;
- Ko'kalamzorlashtirilgan maydon - 0.16 ga.

3.2. Arxitektura qurilish yechimlari

Qurilish uchastkasining tavsifi

Qurilish-iqlimiy zona – II.

Hisobiy qishki tashqi havo harorati – minus 16ºC.

Me'yoriy shamol bosimi – 0,38 kPa.

Me'yoriy qor yuki – 0,50 kPa.

Qurilish maydonining grunt sharoitlarini hisobga olgan holdagi seysmikligi – 7 ball.

Loyihalanayotgan bino va inshootlarning asosi IGE №1 va IGE №2 grunt qatlamlaridan iborat. IGE №1 – jigarrang rangdagi, qattiq konsistensiyali, mayda shag'al qatlamchalari va qumoq qatlamlari bilan ifodalangan supeslardan tashkil topgan. Tadqiq etilgan uchastkadagi IGE-1 gruntlari qo'shimcha yuklamalar ta'sirida cho'kuvchan hisoblanadi. Cho'kuvchanlik bo'yicha grunt sharoitlari turi – I (birinchi). Boshlang'ich cho'kish bosimi – 0,06–0,07 MPa. Qatlam qalinligi 5,8 m gacha.

ShNK 2.02.01-19 ning V ilovasi, V.4-jadvaliga muvofiq IGE-1 gruntlarining hisobiy qarshiligi (R) tabiiy holatda 325 kPa (3,25 kgs/sm²), suvga to'yingan holatda esa 165 kPa (1,65 kgs/sm²) ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar eni 1,0 m va yotqizilish chuqurligi 2,0 m bo'lgan poydevorlar uchun qabul qilingan.

IGE №2 – cho'kindi va metamorfik jinslar bo'laklaridan tashkil topgan, supesli to'ldirgichli, kam namlangan, sust yumaloqlashgan shag'allardan iborat.

Tadqiq etilgan uchastkadagi IGE-2 gruntlari cho'kuvchan emas. Qatlamning aniqlangan qalinligi 4,0 m gacha. ShNK 2.02.01-19 ning V ilovasi, V.1-jadvaliga muvofiq IGE-2 gruntlarining hisobiy qarshiligi (R) eni 1,0 m va yotqizilish chuqurligi 2,0 m bo'lgan poydevorlar uchun 450 kPa (4,5 kgs/sm²) ni tashkil etadi.

Tadqiq etilgan uchastkadagi IGE-1 gruntlari qo'shimcha yuklamalar ta'sirida cho'kuvchan bo'lib, cho'kuvchanlik bo'yicha grunt sharoitlari turi I (birinchi) hisoblanadi. Boshlang'ich cho'kish bosimi – 0,06–0,07 MPa. IGE-2 gruntlari esa cho'kuvchan emas.

ГОСТ 25100-2020 ning B.22-jadvaliga muvofiq, tadqiq etilgan uchastka gruntlari tarkibidagi oson eruvchan tuzlar miqdori bo‘yicha sho‘rlanmagan hisoblanadi.
KMK 2.03.11-96 ning 4-jadvaliga muvofiq, gruntlar tarkibidagi sulfatlar miqdoriga ko‘ra, suv o‘tkazmasligi bo‘yicha W markali betonlarga nisbatan ГОСТ 10178-85* bo‘yicha portlandsement asosidagi betonlar uchun sust agressiv, ГОСТ 22266-94 bo‘yicha sulfatga chidamli sement asosidagi betonlar uchun esa agressiv emas (quruq zona sharoitida) deb baholanadi.
Temir-beton konstruksiyalarga nisbatan gruntlar tarkibidagi Cl^- ionlari (SO_4^{2-} ionlarini Cl^- ionlariga qayta hisoblaganda) bo‘yicha sust agressiv hisoblanadi.
Tadqiqotlar davrida (2026 yil yanvar oyida) 10,0 m chuqurlikkacha qazilgan quduqlarda yer osti suvlari aniqlanmagan.
KMK 2.01.03-19 ga muvofiq hududning seysmikligi Jizzax shahri bo‘yicha baholanadi va 50 yilda bir marta takrorlanish ehtimoli bilan 7 (yetti) ballni tashkil etadi.
Gruntlarning seysmik xossalari bo‘yicha toifasi – II (ikkinchi).
Xavfli geologik jarayonlar – seysmiklik va gil gruntlarning cho‘kishi.
Gruntlarning mavsumiy muzlashining maksimal chuqurligi:
0,58 m – 10 yilda bir marta kuzatilishi mumkin;
0,82 m – 50 yilda bir marta kuzatilishi mumkin.
(Ma’lumotlar ShNK 2.01.01-22 ning 13-jadvali va G‘allaorol meteorologiya stansiyasi ma’lumotlariga asosan keltirilgan.)
Tadqiqotlar davrida (2026 yil yanvar oyida) 10,0 m chuqurlikkacha qazilgan quduqlarda yer osti suvlari aniqlanmagan.

9 qavatli turar joy binosi, Blok – A (2 ta)

Arxitektura-rejaviy yechimlar

9 qavatli bir kirish yo‘lakli turar joy binosi rejada to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, reja o‘lchamlari 15,8×30,3 m ni tashkil etadi. Bino “A” o‘qi bo‘ylab “1-2” va “6-7” o‘qlari oralig‘ida 1200 mm chiqintiga ega.
Bino bir kirish yo‘lakli bo‘lib, balandligi h = 3,20 m bo‘lgan yerto‘la qavatiga ega. 1–9-qavatlardagi xonalar balandligi poldan ko‘taruvchi konstruksiyalar tagigacha h = 3,0 m ni tashkil etadi.
Yerto‘la qavatida quyidagi xonalar joylashgan:
yerto‘la;
lift shaxtasi bilan zinapoya katagi;
texnik xona.
1-qavatdan 9-qavatgacha quyidagi xonalar joylashgan:
koridor;
lift shaxtasi bilan zinapoya katagi;
mehmonxona;
yotoqxona;
bolalar yotoqxonasi;
oshxona;
sanitar tugunlar;
balkon.
Kvartiralar soni
1 xonali kvartiralar – 9 ta;
2 xonali kvartiralar – 45 ta.
Bino bir kirish yo‘lakli bo‘lib, kvartiralarning umumiy soni 54 ta.

Pol qoplamalari
Yerto‘la qavatida – beton pol;
1–9-qavatlarda – qalinligi 10 mm bo‘lgan tarket qoplamasi va yelim asosidagi keramik granit plitkalar;
Zinapoya marshlari, maydonchalari va koridorlarda – 600×600×20 mm o‘lchamdagi marmar plitalar.
Deraza va eshiklar
Deraza bloklari – individual tayyorlangan, PVX profillardan ishlangan metalloplastik konstruksiyalar, bir kamerali shisha paketli (RST Uz 700-96 talablariga muvofiq).
Faramuga bloklari – individual tayyorlangan, PVX profillardan ishlangan metalloplastik konstruksiyalar, bir kamerali shisha paketli.
Yerto‘laga kirish tashqi eshiklari – individual tayyorlangan, kar metall, issiqlik izolyatsiyalangan, kodli qulf bilan jihozlangan.
Kvartiralarga kirish tashqi eshiklari – individual tayyorlangan, kar metall, issiqlik izolyatsiyalangan, o‘rnatma qulf bilan jihozlangan.
Ichki eshiklar – MDF polotnoli hamda naqshli shaffof bo‘lmagan oynali alyuminiy profillardan tayyorlangan.
Pardoz ishlari
Tashqi pardoz – bino fasadlarining tashqi pardoz qaydnomasiga muvofiq.
Ichki pardoz – xonalarning ichki pardoz qaydnomasiga muvofiq.
Binoning tavsiflari
Mas’uliyat sinfi – II.
Chidamlilik darajasi – II.
Yong‘inga bardoshlilik darajasi – II.
Funksional yong‘in xavfi sinfi – F1.3.
Konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S1.
Qurilish konstruksiyalarining yong‘in xavfi sinfi – K1.
Portlash-yong‘in va yong‘in xavfi bo‘yicha bino toifasi – G.
Vazifasi bo‘yicha ishonchlilik koeffitsiyenti – 0,95.
Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	0.000 belgidan past	0.000 belgidan yuqori	Jami
1	Qurilish maydoni	m²	-	482,0	482,0
2	Umumiy maydon	m²	421,85	3713,12	4134,97
3	Foydali maydon	m²	403,80	3452,30	3856,10
4	Yashash maydoni	m²	-	3011,30	3011,30
5	Qurilish hajmi	m³	1542,40	14701,00	16243,40
6	Qavatlar soni	qavat	-	9	9 qavat

9 qavatli turar joy binosi, Blok – B (1 ta)
Arxitektura-rejaviy yechimlar

9 qavatli bir kirish yo‘lakli turar joy binosi rejada to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, reja o‘lchamlari 14,60 × 30,20 m ni tashkil etadi. Bino “D” o‘qi bo‘ylab “2-5” o‘qlari oralig‘ida 1500 mm chiqintiga ega.
Bino bir kirish yo‘lakli bo‘lib, balandligi h = 3,20 m bo‘lgan yerto‘la qavatiga ega. 1–9-qavatlardagi xonalar balandligi poldan ko‘taruvchi konstruksiyalar tagigacha h = 3,0 m ni tashkil etadi.
Yerto‘la qavatida quyidagi xonalar joylashgan:
yerto‘la;
lift shaxtasi bilan zinapoya katagi;
texnik xona.
1-qavatdan 9-qavatgacha quyidagi xonalar joylashgan:
koridor;
lift shaxtasi bilan zinapoya katagi;
mehmonxona;
yotoqxona;
bolalar yotoqxonasi;
oshxona;
sanitar tugunlar;
balkon.
Kvartiralar soni
1 xonali kvartiralar – 9 ta;
2 xonali kvartiralar – 18 ta;
3 xonali kvartiralar – 9 ta;
4 xonali kvartiralar – 9 ta.
Bino bir kirish yo‘lakli bo‘lib, kvartiralarning umumiy soni 45 ta.
Pol qoplamalari
Yerto‘la qavatida – beton pol;
1–9-qavatlarda – qalinligi 10 mm bo‘lgan tarket qoplamasi va yelim asosidagi keramik granit plitkalar;
Zinapoya marshlari, maydonchalari va koridorlarda – 600 × 600 × 20 mm o‘lchamdagi marmar plitalar.
Deraza va eshiklar
Deraza bloklari – individual tayyorlangan, PVX profillardan ishlangan metalloplastik konstruksiyalar, bir kamerali shisha paketli (RST Uz 700-96 talablariga muvofiq).
Faramuga bloklari – individual tayyorlangan, PVX profillardan ishlangan metalloplastik konstruksiyalar, bir kamerali shisha paketli.
Yerto‘laga kirish tashqi eshiklari – individual tayyorlangan, kar metall, issiqlik izolyatsiyalangan, kodli qulf bilan jihozlangan.
Kvartiralarga kirish tashqi eshiklari – individual tayyorlangan, kar metall, issiqlik izolyatsiyalangan, o‘rnatma qulf bilan jihozlangan.
Ichki eshiklar – MDF polotnoli hamda naqshli shaffof bo‘lmagan oynali alyuminiy profillardan tayyorlangan.
Pardoz ishlari
Tashqi pardoz – bino fasadlarining tashqi pardoz qaydnomasiga muvofiq.
Ichki pardoz – xonalarning ichki pardoz qaydnomasiga muvofiq.
Binoning tavsiflari
Mas’uliyat sinfi – II.

Chidamlilik darajasi – II.
Yong‘inga bardoshlilik darajasi – II.
Funksional yong‘in xavfi sinfi – F1.3.
Konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S1.
Qurilish konstruksiyalarining yong‘in xavfi sinfi – K1.
Portlash-yong‘in va yong‘in xavfi bo‘yicha bino toifasi – G.
Vazifasi bo‘yicha ishonchlilik koeffitsiyenti – 0,95.
Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	0.000 belgidan past	0.000 belgidan yuqori	Jami
1	Qurilish maydoni	m²	–	445,0	445,0
2	Umumiy maydon	m²	397,20	3446,58	3843,78
3	Foydali maydon	m²	379,20	2110,95	2490,15
4	Yashash maydoni	m²	–	2021,66	2021,66
5	Qurilish hajmi	m³	1557,50	13576,95	15134,45
6	Qavatlar soni	qavat	–	9	9 qavat

Konstruktiv yechimlar
9 qavatli turar joy binosi, Blok – A (2 ta)
Konstruktiv yechimlar
-Poydevorlar – qalinligi t=900 mm bo‘lgan, B20 sinfli betondan tayyorlangan, to‘rlar bilan armaturalangan monolit temir-beton yaxlit plitadan.
-Yerto‘la qavatining tashqi devorlari – Uz RST 778-97 bo‘yicha FBS markali yig‘ma beton poydevor bloklaridan, qalinligi 400 mm.
-Tashqi devorlar – ГОСТ 31360-2007 bo‘yicha D500 markali avtoklav gazobloklardan maxsus yelimda terilgan, qalinligi 250 mm, qalinligi 50 mm, zichligi Y=120 kg/m³ bo‘lgan bazalt asosidagi mineral paxta plitalari bilan issiqlik izolyatsiyalangan. Terim II toifa bo‘lib, normal yopishish mustahkamligi 1,8 kg/sm² ≥ R ≥ 1,2 kg/sm². Devorlar har 600 mm balandlikda gorizontal armatura to‘rlari bilan kuchaytirilgan.
-Ichki devorlar – ГОСТ 31360-2007 bo‘yicha D500 markali avtoklav gazobloklardan maxsus yelimda terilgan, qalinligi 250 mm. Terim II toifa. Har 600 mm balandlikda gorizontal armatura to‘rlari bilan kuchaytirilgan.
-Monolit ustunlar – B22,5 sinfli betondan monolit temir-beton. Kesimi:
-yerto‘ladan 3-qavatgacha – 500×500 mm;
-4-qavatdan 9-qavatgacha – 400×400 mm.
-Monolit rigellar – B22,5 sinfli betondan monolit temir-beton, kesimi 400×400 mm.
-Monolit qattiqlik diafragmalari – B22,5 sinfli betondan, qalinligi 250 mm.
-Monolit o‘zaklar (serdechniklar) – B15 sinfli betondan monolit temir-beton.
-Pardevorlar – ГОСТ 31360-2007 bo‘yicha D500 markali avtoklav gazobloklardan maxsus yelimda terilgan, qalinligi 120 mm. Terim II toifa. Har 600 mm balandlikda gorizontal armatura to‘rlari bilan kuchaytirilgan.

-Peremychkalar – metall.
-Qavatlararo va tom yopma plitalari – yig‘ma temir-beton ko‘p bo‘shliqli plitalardan.
Zinapoya marshlari va maydonchalari – B22,5 sinfli betondan monolit temir-beton.
-Issiqlik izolyatsiyasi – qalinligi 100 mm, zichligi Y=140 kg/m³ bo‘lgan yuqori qattiqlikdagi bazalt asosidagi mineral paxta plitalari.
-Tom qoplamasi – ikki nishabli, ichki tashkillashtirilgan suv oqizish tizimiga ega bo‘lib, yog‘och yashik ustiga qalinligi 0,51 mm bo‘lgan polimer qoplamali profillangan listlardan bajarilgan.
-Kirish maydonchalari va panduslar – beton.
-Otmostka – kengligi 1500 mm bo‘lgan beton.
Konstruktiv yechimlar
9 qavatli turar joy binosi, Blok – B (1 ta)
Konstruktiv yechimlar
-Poydevorlar – qalinligi t=900 mm bo‘lgan, B20 sinfli betondan tayyorlangan, to‘rlar bilan armaturalangan monolit temir-beton yaxlit plitadan.
-Yerto‘la qavatining tashqi devorlari – Uz RST 778-97 bo‘yicha FBS markali yig‘ma beton poydevor bloklaridan, qalinligi 400 mm.
-Tashqi devorlar – ГОСТ 31360-2007 bo‘yicha D500 markali avtoklav gazobloklardan maxsus yelimda terilgan, qalinligi 250 mm, qalinligi 50 mm, zichligi Y=120 kg/m³ bo‘lgan bazalt asosidagi mineral paxta plitalari bilan issiqlik izolyatsiyalangan. Terim II toifa bo‘lib, normal yopishish mustahkamligi 1,8 kg/sm² ≥ R ≥ 1,2 kg/sm². Devorlar har 600 mm balandlikda gorizontal armatura to‘rlari bilan kuchaytirilgan.
-Ichki devorlar – ГОСТ 31360-2007 bo‘yicha D500 markali avtoklav gazobloklardan maxsus yelimda terilgan, qalinligi 250 mm. Terim II toifa. Har 600 mm balandlikda gorizontal armatura to‘rlari bilan kuchaytirilgan.
-Monolit ustunlar – B22,5 sinfli betondan monolit temir-beton. Kesimi:
-yerto‘ladan 3-qavatgacha – 500×500 mm;
-4-qavatdan 9-qavatgacha – 400×400 mm.
-Monolit rigellar – B22,5 sinfli betondan monolit temir-beton, kesimi 400×400 mm.
-Monolit qattiqlik diafragmalari – B22,5 sinfli betondan, qalinligi 250 mm.
-Monolit o‘zaklar (serdechniklar) – B15 sinfli betondan monolit temir-beton.
-Pardevorlar – ГОСТ 31360-2007 bo‘yicha D500 markali avtoklav gazobloklardan maxsus yelimda terilgan, qalinligi 120 mm. Terim II toifa. Har 600 mm balandlikda gorizontal armatura to‘rlari bilan kuchaytirilgan.
-Peremychkalar – metall.
-Qavatlararo va tom yopma plitalari – yig‘ma temir-beton ko‘p bo‘shliqli plitalardan.
-Zinapoya marshlari va maydonchalari – B22,5 sinfli betondan monolit temir-beton.
-Issiqlik izolyatsiyasi – qalinligi 100 mm, zichligi Y=140 kg/m³ bo‘lgan yuqori qattiqlikdagi bazalt asosidagi mineral paxta plitalari.
-Tom qoplamasi – bir nishabli, tashkillashtirilgan suv oqizish tizimiga ega bo‘lib, yog‘och yashik ustiga qalinligi 0,51 mm bo‘lgan polimer qoplamali profillangan listlardan bajarilgan.
-Kirish maydonchalari va panduslar – beton.
-Otmostka – kengligi 1500 mm bo‘lgan beton.
3.3. Energiya samaradorlik.
- barcha tashqi to’siqlar (devorlar, qoplamalar, derazalar) energiya tejash shartlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan;

- bino energiya tejamkor issiqlik izolyasiyasi materiallar bilan ximoyalangan;
- yoritish tizimida energiya tejamkor lampalardan foydalanish ko‘zda tutilgan;
- binoda quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

3.4. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish:

Loyiha doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun alohida maxsus avtoturargoh, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish maqsadida yo’lak qismida taktil yo‘naltiruvchi va ogohlantiruvchi qoplamalar, hududda dam olish joylari o’rindiqlar chiqindi qutilar hamda o’rindiqli aravachada harakatlanadigan shaxslar uchun alohida joy o’rinlari, binoga kirish qismida pandus, zina va pandusda 0,7 – 0,9m balandlikda tutqichlar, chaqiruv tugma, eshiklar atrofida kontrast lenta, maxsus belgilar, elektron tablo, mnemonik sxema, bino ichki yo’laklari nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz harakatlanishlari uchun taktil qoplamalar loyihalangan.

3.5. Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar:

Yong‘inga bardoshlilik darajasi – II.

Funksional yong‘in xavfi sinfi – F1.3.

Evakuatsiya zinapoya kataklari orqali amalga oshiriladi. Evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi binodan chiqish yo‘nalishi bo‘yicha loyihalashtirilgan. Evakuatsiya yo‘llarining ichki pardozlari yonmaydigan materiallardan bajariladi.

15 m dan yuqori balandlikda joylashgan kvartiralarda avariya chiqishlari sifatida ochiq balkonlarga chiqish ko‘zda tutilgan. Bunda balkon uchidan deraza o‘rnigacha bo‘lgan devor qismi kengligi 1200 mm etib qabul qilingan.

Tom qismida himoya to‘siqlari va tomga chiqish yo‘llari nazarda tutilgan. Tomning yog‘och konstruksiyalari yong‘indan himoyalovchi ishlov bilan qoplanadi.

Binoning tashqi pardozi yonmaydigan materiallardan bajariladi. Tomning issiqlik izolyatsiyasi sifatida qiyin yonuvchi materiallar turiga kiruvchi mineral paxta plitalari qo‘llaniladi.

Loyihada ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimi, yong‘in kranlari va yong‘in nasoslarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan.Tashqi yong‘in o‘chirish ishlari yong‘in gidrantlari orqali amalga oshiriladi. 555516-sonli lokal xulosada berilgan e’tiroz va tavsiyalar to‘liq tuzatilmasdan buyurtmachiga topshirilgan taqdirda, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta’minoti:

Elektr qismi ShNQ 2.04.17-2019, ShNQ 2.08.01-2019, ShNQ 2.01.05-2019 va PUE talablariga muvofiq, loyihaning arxitektura-qurilish qismi topshiriqlari asosida ishlab chiqilgan.

Elektr ta’minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar joy binolari II toifali iste’molchilar qatoriga kiradi.

Binolarning elektr energiyasi iste’mol ko‘rsatkichlari:

VRU:

Hisobiy quvvat – Rp = 439,14 kVt;

Hisobiy tok – Ip = 681,9 A.

Kvartiralarning ta’minot liniyalari ko‘taruvchilari loyihaviy yuklamalari, shuningdek kirish qismidagi loyihaviy yuklamalar ShNQ 2.04.17-2019 ning 2-jadvali, 5-bandiga berilgan izohlar hisobga olingan holda, har bir xonadonning solishtirma yuklamasi va kvartiralar sonidan kelib chiqib aniqlangan.

Kirish-taqsimlash qurilmasi sifatida AUO blokli VRU1-23-55UXL4 seriyali qurilma qabul qilingan.

Turar joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518 turidagi elektron hisoblagichlar yordamida amalga oshiriladi.
Bino tomida quvvati 15 kVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini o‘rnatish nazarda tutilgan.

4.2. Yong‘in signalizatsiyasi:

Mazkur «Aloqa va signalizatsiya» bo‘limi loyihasida quyidagi kuchsiz tok qurilmalarini o‘rnatish nazarda tutilgan: Yong‘in signalizatsiyasi. Yong‘in haqida ogohlantirish tizimi. Yong‘inning rivojlanishini oldini olish maqsadida yong‘in signalizatsiyasi tizimini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Tizimning qabul qiluvchi qurilmasi sifatida «RUBEJ-2OP PROT.R3 RS-485» konsentratori qabul qilinadi va u A-blokdagi nazorat-o‘tkazish punktida (KPP) o‘rnatiladi. Qabul qiluvchi qurilma jihozlari to‘plami binoni yong‘in yuzaga kelganini aniqlovchi signalizatorlar bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Xabarlagichlar yoritgichlardan kamida 200 mm masofada shiftga mahkamlanadi va nur (shleyf)ga ketma-ket ulanadi. Yong‘in signalizatsiyasining taqsimlovchi tarmoqlari KPCng(A) markali kabel bilan bajariladi. SUZ qurilmasi koridorlarda o‘rnatilishi lozim. Loyihada yong‘in yoki boshqa avariya holatlarida xodimlar va tashrif buyuruvchilarni markazlashtirilgan tarzda ogohlantirish imkoniyati nazarda tutilgan. Buning uchun kuchaytirgich qurilmasidan foydalaniladi. Yong‘in haqida ogohlantirishni boshqarish qurilmasi — PPU Sonar SPM A-blokdagi KPPda o‘rnatiladi. Xonalar va koridorlarda 2,3 m balandlikda KD-726 turidagi dinamik ovoz kuchaytirgichlar o‘rnatiladi. Ovoz kuchaytirgichlardan majburiy eshittirishni ta’minlash maqsadida ovoz balandligi rostlagichlari demontaj qilinadi. Ovoz kuchaytirgichlarni tarmoqqa ulash uzluksiz (halqasiz uzilmasdan) usulda bajariladi. Yong‘in haqida ogohlantirish tarmoqlarini montaj qilish KPCng(A) kabeli bilan, devor bo‘ylab yashirin tarzda, suvoq qatlami ostidan amalga oshiriladi.

4.3. Ichimlik suv va oqova suv.

A-B-V-bloklar uchun loyiha mazmuni. Sovuq suv ta'minoti maishiy va ichimlik sifatida qabul qilinadi. Kirishlar soni bitta. Maishiy suv ta'minoti quvurlari PN10 d-20,25,32,40,50 mm polipropilen quvurlaridan tayyorlanadi. Sanitariya moslamalariga ulanishlar devorlarda yashiringan va ochiq holda yotqizilgan.Suv bosimini taminlab beruvchi Насосная станция ACm150 Q=6.0м3/час; H=37.0; 1.5 кВт (220/230В) quvvatidgi nasos qurilmasi bilan taminlangan. Yong‘inga qarshi suv tarminoti o‘chun konsol suv nasoslari o‘rnatilib, diametri 57mm bo‘lgan po‘lar quvurlardan montaj qilingan. Ichki yong‘inni bartaraf etish D50mm bo‘lgan 9- dona yong‘in kranlar bilan amalga oshiriladi. Suv bosimini taminlab beruvchi Пож насосы NM 32/20D/A9,6м3/ч; 36.0м, 2,2 кВт (380 В) quvvatidgi nasos qurilmasi bilan taminlangan. Issiq suv ta'minoti 45-dona 80 litr elektr suv isitgichilaridan avtonom olinadi. Issiq suv quvurlari PN20 va PP-RCT quvurlaridan montaj qilingan. Loyiha, shuningdek, bino tom qismiga 5-ta 300 litrli quyosh suv isitgich kollektorlaridan o`rnatilishi rejalashtirilgan. Ichki maishiy kanalizatsiya tarmoqlari 50-100mm GOST 22689-2014 ga muvofiq plastik quvurlardan tayyorlangan. Tashqi suv ta’minoti manbai suv taminoti tashkilotining 28.11.2025 sanasidagi №246/10 sonli murojot raqam asos qilinib hududdagi mavjud ichimlik suv polietilen quvur xisoblanadi. Tashqi kanalizatsiya tarmog‘lariga chiqqan oqava suv tarmog‘i suv taminoti tashkilotining 28.11.2025 sanasidagi №246/10 sonli murojot raqam asos qilinib hududdagi mavjud oqova suv tarmog`iga ulanadi.

4.4. Isitish va shamollatish.

Loyiha topshirig'i va buyurtmachining xatiga ko'ra isitish va shamollatish tizimi ishchi loyihalari keyingi bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Yuqoridagilarni inibatga olgan

holda isitish va shamollatish tizimi soha eksperti tomonidan o'rganilmadi.

4.5. *Qurilish hududiga aloqador barcha muhandislik tarmoqlari hususan, gaz, suv va oqova suv, elektr tarmoqlari ximoya zonalari saqlanishi, qurilish ishlari davomida tegishli tashkilot vakillari ishtiroki ta’minlanishi hamda kelishilishi buyurtmachi tashkilot zimmasidadir.*

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Davlat ekologik ekspertiza markazi Jizzax viloyati boshqarmasi tomonidan 16.01.2026 yilda berilgan 01-02/04-2681-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 27.04.2026 dagi 282320365 -sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Smeta qiymati qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **42 596 990 447** so'm taqdim etilgan. Smeta hujjatlari ekspertiza tomonidan o’rganilmadi va ko’rib chiqilmadi. Buyurtmachi «MAMAJONOVLAR» MChJ ning 2026 yil 17 iyuldagi №17-07-sonli kafolat xati ga asosan smeta keyingi bosqichda amalga oshiriladi.

6.1. Loyiha xujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Obyektning qurilish qiymati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o’tkazish tartibotlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorining 6-bandiga va buyurtmachining “Qurilish ishlarini o’z mablag’lari hisobiga amalga oshirilishini hisobga olgan holda, “Jizzax viloyati Jizzax shahar “Toshloq” MFY hududida qurilishi rejalashtirilgan “Ko’p qavatli turar joy” binosi” obyekti smeta qismi ekspertiza ko’rigidan o’tkazilmadi.

6.3. Obyektning Arxitekturaviy yechimlari, konstruktiv yechimlari, yong’in xavfsizligi, Nogironligi bo’lgan shaxslarga qulay va to’siqsiz xarakatlanishi uchun sharoitlar yaratish va tarmoq muhandisligi qismlari loyihalari ekspert mutaxassislar tomonidan to’liq o’rganib chiqildi va e’tirozlar berildi. Loyihaga berilgan e’tirozlar «NUR-FAYZ-ZAMIN» MCHJ tomonidan bartaraf etildi va javob xatlari “Shaffof qurilish” MAT orqali taqdim qilindi.

*Loyihalarning yong’in xavfsizligi qismi uchun berilgan e’tiroz va tavsiyalar qurilish jarayonida buyurtmachi tomonidan qabul qilinishi va loyiha tashkiloti tomonidan mualliflik nazoratlarida e’tiborga olinishi talab etiladi.

6.4. Berilgan yig'ma ekspert xulosasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021-yildagi №579-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 1.1, 1.5 va 1.6 bandlarini inobatga olgan holda tayyorlangan va buyurtmachi “MAMAJONOVLAR” MChJ qurilish ishlarini o'z hisobidan bajarayotganligi sababli to'g'ridan to'g'ri bank kreditlari olish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi.

6.5. Barcha loyihaviy yechimlar uchun taqdim qilingan javob xujjatlar xaqqoniyligi va ishonchliligi uchun javobgarlik buyurtmachi va loyiha tashkiloti zimmasida qoladi.

6.6. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25 - moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579 - sonli qarorining 1 - ilova 3 - bob 29 - bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.8. Taqdim qilingan lokal hulosa javoblari haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.08.2022 yildagi “Chiqindilar bilan bog’liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risidagi” PF-189-sonli Farmoni 6-bandi ijrosi, 23.11.2023 yildagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risidagi” PF-199-sonli Farmoni 15-bandi ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirining 12.06.2023 yildagi 153-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan ShNQ 2.07.01-03* ning 19-ilovasi ijrolarining ta’minlanishi buyurtmachi, pudratchi, loyiha tashkiloti va binoni qabul qilish komissiyasisi zimmasidadir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda **“Jizzax viloyati Jizzax shahar “Toshloq” MFY hududida qurilishi rejalashtirilgan “Ko’p qavatli turar joy” binosi”** obyektining loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqishga va kelishishga tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Ergashov Jonibek Izzatullo O‘g‘li, Abduvaxidov Sarvar Anvar O‘g‘li, Abduramanov Nazim Xxx, Jo‘rayev Bekzod Atham O‘g‘li, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Amonov Javoxir Muxammadjon O‘g‘li

Bosh ekspert

HAMZAYEV SARDORBEK ABDUSATTOR O‘G‘LI